

## AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA BOLALARDA AXLOQIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH

Navoiy pedagogika instituti o'qituvchisi

Xasanova Bo'rigul

### ANNOTATSIYA

Hozirgi davr globallashtirilgan dunyoda sodir bo'layotgan murakkab, noxiziq jarayonlar tahlilini mazkur omillarni hisobga olmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Ushbu maqolada shakllanayotgan axborotlashgan jamiyatda ma'naviyat sohasidagi o'zgarishlar, ularning o'ziga xususiyatlari falsafiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: axborot, bilim, axborotlashgan jamiyat, ma'naviyat, rivojlanish, ta'lim, tasodif, o'zgarish, inson, jamiyat.

### FORMATION OF ETHICAL BUSINESS IN CHILDREN IN THE INFORMATION SOCIETY

### ABSTRACT

The analysis of complex, non-linear processes taking place in today's globalized world is impossible without taking into account these factors. This article provides a philosophical analysis of the changes in the field of spirituality in the emerging information society, their peculiarities.

**Keywords:** information, knowledge, informed society, spirituality, development, education, coincidence, change, man, society

### ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМИРОВАННОГО ОБЩЕСТВА И ЭТИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ

### АННОТАЦИЯ

Без учета этих факторов невозможно анализировать сложные и деликатные процессы, происходящие в современном глобализованном мире. В данной статье философски анализируются изменения в сфере духовности в

формирующемся информационном обществе и их специфические особенности.

**Ключевые слова:** информация, знание, информированное общество, духовность, развитие, образование, шанс, изменение, человек, общество.

## KIRISH

Jahon miqyosida axborot kommunikatsiya texnologiyalari dunyo tamadduni rivojiga ulkan hissa qo'shishi bilan birga, murakkab va ziddiyatli xarakterga ega bo'lgan jarayonlarni ham keltirib chiqarmoqda. XXI asrda axborot resurslari ijtimoiy, madaniy, ma'naviy sohadagi ma'lumotlar orqali turli yosh va toifadagi shaxslarning ongiga ta'sir qilib, ularning dunyoqarashi, ijtimoiy xarakteri hamda murakkab tafakkurini shakllantirish vositasi sifatida real voqelikka aylandi. Shu sababli shakllanayotgan axborotlashgan jamiyatda ma'naviyatda ham turli xil o'zgarishlarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli ham hozirgi davr jahon miqyosida globallasuv jarayoni kuchaygan, insoniyatning axborotlashgan jamiyat bosqichiga o'tishi tobora chuqurlashib borayotgan davr bo'lib, butun insoniyat, shu jumladan xalqimiz ham ma'naviyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli mafkuraviy tahdidlar ostida yashamoqda. Ushbu jarayonda jamiyatimiz ma'naviy hayotiga turli-tuman axborot, ilm-fan, madaniyat va san'at, yangi sivilizatsiyalar, texnologiyalarning kirib kelishi bilan birgalikda turli zararli g'oyalar va mafkuralar tahdidining vujudga kelishi bugungi kunda shunday globallasuv sharoitida ma'naviyat muammosini, ma'naviy xususiyatlarimizni saqlash hamda ma'naviy tarbiyani rivojlantirish masalalarini dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'ymoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yilning 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda prezidentimiz, "jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyat"[18] ekanligiga urg'u

berdi. Ayniqsa, bugungi raqamlashtirish jarayoni va pandemiya sharoitida barkamol yoshlarni ma'naviy tarbiyalash muammolariga e'tibor berish zarur. Chunki, ushbu muammolar insoniyatni, ayniqsa yoshlarga globallashtirish, axborotlashgan jamiyat shakllanishi natijasida ma'naviyat o'rtasidagi aloqadorliklar mohiyatini, bugungi dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy jarayonlar va mafkuraviy kurash hamda ma'naviy tahdidlarni kompleks tahlil qilish malakalarini shakllantirishga imkoniyat yaratadi. Axborot uzatish, almashinish va qabul qilish jarayonida tezkorlik, aniqlik, sifat va ta'sirchanlikni ta'minlash, axborotning dunyo bo'ylab keng yoyilishi imkoniyatini yaratishda "butun jahon o'rgimchak to'ri"ning ahamiyati katta va aynan mana shu omil undan foydalanish ehtiyojini tobora orttirmoqda. Yangi yuz yillikda O'zbekistonga ham internet shiddat bilan kirib keldi va kundalik haëtda o'z o'rniga ega bo'ldi. Dunyoda internet foydalanuvchilari soni 4 milliarddan oshdi. Sayyoramizning 53 foizdan ko'proq aholisi yoki 4,1 mlrd kishi internetdan foydalanish imkoniga ega va bu ko'rsatkich oshishda davom etmoqda. Ma'lum bo'lishicha, Yer aholisining 96 foizi mobil raqamli signaldan foydalanish hududida joylashgan. Bundan 93 foizini 3G yoki undan yuqoriroq avlodagi signal tashkil qiladi. Yevropa, G'arbiy yarimsharda va Osiyo-Tinch okeani mintaqasida mobil raqamli signal bilan qoplanganlik 95 foizni, arab davlatlarida 91 foizni, MDH hududida 88 foizni va Afrikada 79 foizni tashkil qiladi. Mamlakatimizda 2008-yilga kelib internetdan foydalanuvchilar soni 2 million 200 ming kishidan oshgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib internet xizmatidan foydalanuvchilar soni - 22,1 milliondan oshdi. Shundan mobil internet foydalanuvchilari soni - 19 millionni tashkil etmoqda. Mamlakat bo'yicha aholi punktlarining mobil aloqa bilan qamrab olinishi darajasi 97 foizni, mobil internet qamrovi esa 87 foizni tashkil etdi. Fan-texnika yutuqlari inson manfaatlari, ezgu maqsadlar yo'lida xizmat qilishi lozim, albatta. Biroq ayrim kuchlar virtual olamdan g'arazli niyatlari yo'lida foydalanëtgani ham ayni haqiqatdir. Psixologlarning fikriga ko'ra, aholining faqat 15-25 foizi axborotni tanqidiy nuqtayi nazardan o'zlashtirishga qodir, qolgan 75 foiz odamlar esa olingan

axborotning ta'siriga shundayligicha berilib ketadi. Buning oqibatida ommaviy axborotning hozirgi zamon vositalari va usullari jamiyat boshqaruvchanligini ta'minlaydi. Bugungi kunga kelib dunyoning mafkuraviy manzarasi juda murakkablashib ketdi. Unda kuchli ta'sirga ega bo'lishning eng maqbul yo'li, har qancha mablag' talab etilishidan qat'i nazar, yirik axborot tarqatuvchi mavqeyini egallash ekani ayon bo'lib qoldi. Jahonda "axborot urushi" ketayotganini hatto oddiy odamlar ham payqashi qiyin emas. Masalan, biron bir xorijiy mamlakatning turmush tarzi, qadriyatlar tizimini ulug'lovchi risolalar, kinofilmlar tarqatilmoqda, deylik. Tabiiyki, bunday yosh avlodning ma'naviy olamini buzg'unchi ta'sirlardan asrash uchun ta'lim-tarbiya jarayonida qanday tamoyillarga asoslanish va qanday jihatlarga e'tibor qaratish kerak, degan masala faylasuflar, gumanitar fan olimlarining diqqat markazida turibdi.

Fikrimizcha, yoshlarning tafakkur tarbiyasiga ko'proq e'tibor qaratish ular ma'naviy olamining daxlsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 14 mayda qabul qilingan "Elektron tijoratni tezkor rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston hukumati mamlakatni raqamlashtirishga qaratilgan qator ishlarni amalga oshirilmoqda.

Hozirgi yoshlarning axborot oqimiga munosabatini shakllantirish aql idrok, tafakkur tarbiyasining bir yo'nalishidir. Ota-onalar, ustoz va murabbiylar ta'lim-tarbiya berish jarayonida yoshlarga fikr va bilim o'rtasidagi farqni tushuntirishi, fikrlarni o'zaro taqqoslashga, turlarga ajratishga o'rgatishi kerak. Xulosa qilib aytganda, axborot madaniyatini shakllantirish masalasi jamiyat rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli u mamlakat miqyosida ijtimoiy ahamiyatga molik masaladir. Shu sababli axborotlashgan jamiyat shakllanishi sharoitida axborotlashtirish jarayonining barcha sohaga oid jihatlarni o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi paytda millat va davlatning eng muhim resurslaridan biri insonlarning aqliy salohiyati va bilim darajasi hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyot, avval tasavvur etib

kelinganidek, yuqori turmush darajasiga erishgan yoki zamonaviy texnika ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan mamlakatlar emas, balki ta'lim va tarbiyaning yanada yuqori darajasini ta'minlashga erishgan mamlakatlar tarix sahnasining old qatorlariga chiqayotganligini ko'rsatmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ижтимоий фикр инсон ҳуқуқлари // Алишер Мўминов. Ахборотлашган Жамият ва шахс ахборот маданиятини шакллантириш муаммолари. 2012, №
2. Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari./ Uslubiy Qo'llanma.-T.:Star Poligraf, 2008, -24 bet.
3. Ismayilov, A. Z. Xolmo'minov, G..B. (2020). O'zbekiston Respublikasida huquqiy davlat barpo etishning tarixiy-nazariy ildizlari.
4. Ziyadillayevich, I.A., & Bobonazarovich, G.K. (2020). THE ORIGIN OF THE STATE AND THE IMPLEMENTATION OF LEGAL STATEHOOD IDEAS ON THE TERRITORY OF UZBEKISTAN.
5. Ижтимоий фикр инсон ҳуқуқлари // Алишер Мўминов. Ахборотлашган жамият ва шахс ахборот маданиятини шакллантириш муаммолари. 2012, №
6. Xolmo'minov G.,. October 2020 Ta'lim tizimida metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.
7. Hojiyev R.B., Xolmo'minov G.B., Sharipov M.L. (2020) Raising a harmoniously developed generation is a priority of democratic reforms in uzbekistan. European Journal of Research and Reflection in Educational
8. Xolmo'minov G. Buyuk faylasuflar qarashlarida "bilim" va "e'tiqod" tushunchalarining differentsiyasi.